

**TASVIRIY SAN'AT VA CHIZMACHILIK DARSLARIDA GRAFIK DASTURLARDA ISHLASHNI
O'RQATISH ORQALI O'QUVCHILARNI ZAMONAVIY KASBLARGA YO'NALТИРИШ**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13954204>

Izbosarov Izzatillo Uralovich

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti o'qituvchisi

Rahmonova Dilafro'z Ahrorovna

O'zbekiston Finlandiya pedagogika instituti magistranti

Anotatsiya: *Ushbu maqolada tasviriy san'at va chizmachilik darslarida grafik dasturlardan foylanishning ahamiyati va o'quvchilarni kelajak kasblariga yo'naltirish haqidagi fikr, mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Photoshop, CorelDraw, Kompas, AutoCad, IT-park, 3D-MAX, fluid-art, interyer, exteryer, arxitektura, landshaft.*

Yangi O'zbekistonni barpo etishda, davlatmizning o'z oldiga belgilab olgan taraqqiyot yo'lini bosqichma-bosqich amalga oshirish yo'lida olib borilayotgan barcha islohotlar, aholi turmush tarzini yaxshilash, xalqmizning erkin va farovon yashashi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish, ma'naviy barkamol, sog'lom va bilimli avlodni tarbiyalashga qaratilgan bo'lib, davlat strategiaysining asosiy g'oyasi "inson-jamiyat-davlat" tamoyiliga asoslanadi.

Yoshlarni raqamli texnologiyalarga yo'naltirish, kelajak kasblarini egallashlari uchun imkoniyatlarni yaratib berish bo'yicha qator chora tadbirlar amalga oshirilmoqda. Davlat ta'lim tizimini rivojlantirish borasida qabul qilinayotgan me'yoriy - huquqiy hujjatlar, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son va 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomalari mamlakatimizda ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ta'lim tizimini Xalqaro ta'lim standartlariga mos integratsiyalash, jahon bozorida raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash maqsadida rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish, uni amaliyotga joriy etish ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Jumladan, milliy o'quv dasturi asosida yaratilayotgan umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning mantiqiy va kreativ fikrlashini rivojlantirishda zamonaviy maktab darsliklarini XXI asr ko'nikmalariga mos ravishda tayyorlab amaliyotga joriy etilishi, o'qituvchilarning kasbiy, pedagogik va

psixologik malakasini oshirish, o'z ustida ishlash, tajriba almashishi uchun barchaga birdek imkoniyatlarning yaratilganligini ta'kidlash mumkin.

Tasviriy san'at o'quv predmeti o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, boshqa fanlarni (aniq va tabiiy fanlarni) o'zlashtirish jarayonida kreativ fikrlashga, dars jarayonida badiiy - estetik tafakkur va emotsiyal sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi. Dunyoda hamma tushunadigan til bu chizmalar hisoblanadi. Axborot va kommunikastiya texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borayotgani, insonlar o'rtasidagi muloqotlar turli grafik tasvirlar, videolar, animatsiyalar orqali olib borilayotgani grafik dizaynerlik kabi sohalarning rivojlanishiga olib kelmoqda. Bularning barchasi o'z navbatida tasviriy san'at bilan bog'liq hisoblanadi.

Joriy yilning 20 iyun kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida muhandislik sohalarida kadrlar tayyorlash va oliy ta'lif muassalari faoliyatini takomillashtirish masalalari yuzasidan videoselektor yig'ilishida, muhandislik sohasini rivojlantirish borasida bir qator chora-tadbirlar belgilab olindi. Bu, o'z navbatida umumiyl o'rta ta'lif muassasalarida tasviriy san'at va chizmachilik fanlariga e'tiborni kuchaytirish, o'quvchilarni fanga qiziqtirish uchun zamonaviy ped texnologiyalardan samarali foydalanishni talab etadi.

Hozirgi kunda zamonaviy arxitektura interyer, exteryer, landshaft, sanoat dizayni, libos dizayni va boshqa sohalarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Bu o'z navbatida shu soha vakillariga bo'lgan ehtiyojning yuqori bo'lishiga olib kelmoqda.

Dunyoda raqobat kuchaygan bugungi zamonda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalar «Kompyuter grafikasi»ni fan sifatida o'qitilishiga bo'lgan ehtiyojning oshishiga olib keldi. Shuning uchun ham, ayni paytda kompyuter grafikasini turli sohalarga bo'lib o'rganish, uning imkoniyatlaridan qator sohalarda foydalanishning metodik asoslarini yaratish, kompyuter texnologiyalaridan samarali foydalanish hamda hayotimizga kirib kelayotgan yangi sohalarda grafik dasturlardan unumli foydalanish, maqsadli harakatlarini shakllantirish va shu orqali biror bir natijaga erishish mumkinligini singdirishda, kerakli pedagogik va psixologik vositalarni amalda qo'llash va ularni ilmiy asoslash muhimdir.

Kampyuter grafikasi fani asosan chizma va tasvirlar bilan ishlashni o'rgatadi va uning tarkibiy qismi bo'lgan grafik va turli tasvirlar axborot texnologiyasida muhim o'rinn egallaydi.

Bugungi kunda grafik dasturlar juda ko'p bo'lib ulardan Adobe Photoshop-rasm, chizma va grafik tasvirlarga ishlov berish, tahrirlash kabi ishlarni bajariladi. Corel DRAW-grafik tasvirlar qayta ishlanadi, bo'yaladi va bezaladi. 3D MAX- bu dasturda asosan quruvvchilar, arxitektor-dizaynerlar, kino va animatsiya mutaxasislari, muhandislar keng faoliyat olib boradilar. Auto Cad – loyihalash ishlarini bajarishda dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari 18 tilda keng foydalanilib kelinmoqda. Kompas – qurilish va muhandislik sohalarida chizmalar chiziladi.. Dasturlarda tasvirlarni ishlash prinsipiga ko'ra rastrli grafika, vektorli grafika va fraktal grafikaga bo'linib, ularda axborotlarni hosil qilish va qayta ishlash usullari bir-biridan farq qiladi.

Zamonaviy dasturlar imkoniyatlari katta bo'lib, asosan elektron rasm va tasvirlar bilan ishlashni o'rgatadi.

Tasviriy san'at va chizmachilik darslarini tashkil etish ta'lif sifat samaradorligini oshirishda takliflar:

1. Chizmachilik darslarida chizmalarni chizish, o'lchamlar qo'yish, aksonometriyasini bajarish uchun 45 daqiqa kamlik qiladi. Lekin, bugungi kunda grafik dasturlarning qulayliklari va imkoniyati katta "Kompas", "Auto Cad" dasturlarida chizmalar chizishni o'rgatish orqali biz vaqtdan unumli foydalanishimiz, ta'lif sifat samaradorligini oshirishimiz mumkin:

- 45 daqiqlik darsda o'quvchilar berilgan chizmalarni chizadi;
- o'lchamlar qo'yish va chiziq turlarini to'g'ri bajara oladi;
- aksonometriyasini bajarish va yaqqol tasvirini qurishni o'rganadi.

Bunda, o'quvchilarga boshlang'ich bilimlarni berish orqali zamonaviy kasblarga yo'lltirish va ularni qiziqtirish orqali sifat samaradorligini oshirishimiz mumkin.

2. Chizmachilik va tasviriy san'at darslarida o'quvchilarni qiziqtirishda loyiha ishlarini tashkil etish, masalan, taklifnomalar, qadoqalash uchun chiroyli dizayndagi qutilar yasash, bino maketlari tayyorlash, xona bezaklarini tayyorlash, keraksiz buyumlardan foydalanib dekorativ buyumlar tayyorlash va hokazo. Loyer ishini bajarish davomida o'quvchilar:

- o'lgan ma'lumotini nima uchun kerakligini va bu fanni nima uchun o'rganish lozimligini bilib oladi;
- o'lgan bilimini qanday va qaysi vaziyatda qo'llay olishni o'rganadi.

3. Zamonaviy san'at turlaridan "Fluid art"da tayyorlangan dekorlarga talab ortib boryotgani sabab, shu mavzularni to'garak mashg'ulotlarda kiritish va ko'proq mashg'ulot olib borish maqsadga muvofiq.

4. Zamonaviy grafik dasturlar orqali rasmlarni tahrirlash ko'nikmalarini shakllantirish "Photoshop" dasturida ishlash bo'yicha malakalarini oshirish, shu sohada qiziquvchi o'quvchilarni aniqlab, qo'shimcha shug'ullantirish orqali zamonaviy kasblarga yo'naltirish. Tasvirlarni 3D ko'rinishga keltirish, animatsiyalar tayyorlash, afisha, reklamalar toyyorlash bo'yicha qo'shimcha zamonaviy garfik dasturlar "CorelDraw", "3D MAX" dasturlarda loyiha ishlarini bajarib onlayn portfolio jamlab borish mumkinligini tushuntirib, darsga qiziqtirish.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilm-fan, texnika taraqqiyoti va jamiyatimiz hayotiga yuz bergen tub yangilanishlar, shuningdek o'quv axborotlarining muttasil ravishda ortib borayotganligi ta'lif jarayoniga yangicha munosabatda bo'lishni taqazo etmoqda. Hozirgi rivojlanib borayotgan zamonda faqat kitob orqali bilim berishning o'zi kamlik qiladi, shu bois mashg'ulotlarda kompyuter texnologiyalardan foydalanish va ko'rgazmali qurollarni tashkil etish, zamonaviy pedtexnologiyalardan foydalanish muhim hisoblanadi.

Milliy o'quv dastur asosida yaratilgan "Tasviriy san'at" fani darsliklarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, zamonaviy san'at turlari va grafik dasturlardan foydalanib mustaqil ish bajarishlari haqidagi mavzularning kiritilishi o'quvchilarda bu sohada qiziqishni ortirdi. Axborot asrida yashar ekanmiz telefon, kompyuter va gadgetlardan o'quvchilarni

ajratishning imkoniy yo'q, shu sababli ulardan samarali foydalanishni o'rgatish orqali tasviriy san'at va chizmachilik fanlariga o'quvchilarni qiziqtirishimiz va zamonaviy kasblarga yo'naltirishimiz mumkin.

Xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugungi kunda qanday ta'lif tarbiya olishiga bog'liq. Tasviriy san'at olamida bo'layotgan har bir yangilikdan xabardor bo'lish, uning ma'naviy, milliy g'oyasini o'quvchilar ongiga singdirish har bir tasviriy san'at o'qituvchisining burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Azizzxo'jayeva N. O'qituvchi mutaxasisligiga tayyorlash texnologiyasi. T.T.DPU, 2000 yil
2. Mahmudov M. O'quv materiallarini didaktik loyihalash tizimi. «Pedagogik mahorat», 2002 yil 3-soni
3. Rakhmanova, D. A. (2024). Primary Concepts of Perspective and Scientific Resources on Teaching it as a Science. Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science, 2(4), 19-24.
4. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). PISA—(PROGRAMME FOR INTERNATIONAL STUDENT ASSESSMENT)—XALQARO O'QUVCHILARNI BAHOLASH DASTURI HAQIDA. Новости образования: исследование в XXI веке, 2(20), 208-213.
5. Ahrorovna, R. D. Z. (2023). MUAMMOGA ASOSLANGAN TA'LIM (PBL) DOIRASIDA CHIZMACHILIK DARSLARINI TASHKIL ETISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH. FAN, TA'LIM VA AMALIYOTNING INTEGRASIYASI, 377-379.
6. Izbasarov, I., & Rahmanova, D. (2023). TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA PERSPEKTIVA FANINING O'RNI. Interpretation and researches, 1(14).
7. Makkamovich, S. S., Faxriddin o'g'li, F. M., & Xolmuhamad o'g'li, K. J. (2024). DIDAKTIKA TA'LIMDA PEDAGOGIK NAZARIYA SIFATIDA. IMRAS, 7(6), 130-135.
8. Faxriddin o'g'li, F. M. (2023). KOMPYUTER VA UNING GLOBAL TA'LIMDAGI KREATIV O'RNI. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 514-521.
9. Drobchenko, N. V., & Fakhreddinov, M. F. (2022). USING THE COREL DROW COMPUTER PROGRAM TO DEVELOP STUDENTS'CREATIVE ABILITIES THROUGH DRAWING.
10. Faxriddin o'g'li, F. M., Anvarovna, S. M., & Ahrorovna, R. D. Z. (2024). KOMPYUTER GRAFIKASI VA UNING MUHANDISLIK FANLARIDAGI INTEGRATSIYASI TURLI XIL DASTURLAR ASNOSIDA. IMRAS, 7(7), 173-178.
11. Faxriddin o'g'li, F. M. (2024). MUHANDISLIK GRAFIKASINI O'QITISH METODIKASIDA INNOVATSIALARDAN FOYDALANISH. Научный Импульс, 2(23), 59-63.